



"ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSINING YOSH AVLODGA ILHOM VA TARBIYASIGA TA'SIRI"

Gulrux Rajabova.

UrIU "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası
o'qituvchisi

Tohirova Sevinchoy Erkaboy qizi.

UrIU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14891276>

ARTICLE INFO

Received: 11th February 2025

Accepted: 12th February 2025

Published: 18th February 2025

KEYWORDS

adolat, avliyo, devon, siyosat, totuvlik, do'stlik, fikrlash, xudo, mutafakkir, panteizm

ABSTRACT

Ushbu maqolada Alisher Navoi ijodida inson muammosi yoritilgan. Navoiy fikricha insonning qadr-qimmati mezoni ijtimoiy kelib chiqishi va mol-mulki emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatleri hisoblanadi. Olamdagi barcha narsalar insonga xizmat qilish uchun yaratilgan. Mutafakkir panteizm ta'limotiga asoslanib, insonni ilohiylashtiradi, uni ilohiy mavjudlik, Xudoning namoyon bo'lishi, deb hisoblaydi. Navoiy odam asosan ijtimoiy hayot jarayonida insoniy xislatlarga ega bo'lib boradi, deb hisoblaydi. Inson instiktiv harakat qiladigan hayvondan farqli o'laroq aql, fahm-farosat, fikrlash, bilish qobiliyati, shunday qilib, o'zida u yoki bu predmetlar to'g'risida muayyan, tizimli bilim hosil qilish, til in'omi, o'zining fikrlari, bilimlarini boshqalarga berish ko'nikmasiga ega. Bu ijtimoiy fikrni vujudga keltirib, insonning hayvondan ustunligini bildiradi.

Bugungi kunda Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Atrofidagilar uning bu ishiga rag'bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni — „Badoye ul-bidoya“ („Badiiylik ibtidosi“)ni 1472–1476-yillarda shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. 1485–1486-yillarda ikkinchi devon — „Navodir un-nihoya“ („Nihoyasiz nodirliklar“) maydonga keldi. Alisher Navoiy 1481–1482-yillarda „Vaqfiya“ asarini yozadi. Vaqf deb biror xayrli ishning sarf-u xarajatini ta'min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulkka aytiladi. Alisher Navoiyning eng katta orzusi doston yozish, birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri [Nizomiy Ganjaviy](#) (1141–1209) dan keyin shoirlik qudutarining mezoniga aylanib qolgan „Xamsa“ yaratish edi. Nizomiyning „Panj ganj“ nomi bilan tarixga kirgan „Xamsa“si 5 masnaviydan tashkil topgan edi: „Maxzan ul-asror“ („Sirlar xazinas“), „Xusrav va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Hayf paykar“ („Yetti go'zal“), „Iskandarnoma“. Yuz yildan keyin unga Xusrav Dehlaviy (1253–1325) javob qildi. U o'z dostonlarini „Matla ul-anvor“ („Nurlar boshlanishi“), „Shirin va Xusrav“, „Majnun va Layli“, „Hasht behisht“ („Sakkiz jannat“), „Oynayi Iskandariy“ (Iskandar o'ynasi) deb ataladi. Lekin bular hammasi forsiy tilda yozildi. Ulardan

forslar, shu tilni bilganlargina bahramand bo'ldilar. O'z xalqining shunday hazinadan bebahra qolishi Navoiyni qiynadi.

Alisher Navoiy bobomizning fikricha ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish o'rganish kerakligini aytgan: "Yoshligingda yig'gil bilimni, qarigach sarf qil a'ni"

Navoiy maslahatga ustoz [Abdurahmon Jomiy](#) huzuriga boradi. Jomiy Navoiyni bu ishga tezlikda kirishishga undaydi, uning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlaydi. Navoiy besh dostonni ikki yilda tamomlaydi. *1483-yilda* o'z „Xamsa“sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida yugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba „Xamsa“ yaratiladi. Olimu fuzalo — barcha bu hodisani zo'r olqish bilan kutib oldilar. [Zayniddin Vosifiyning „Badoye' ul-vaqoe“sidan](#): "Shoh Navoiyga: „Bir mojaro Siz bilan bizning oramizdan ko'pdan hal bo'lmay keladi, shuni bugun bir yoqlik qilaylik“, deydi. Bu mojaro shundan iborat ediki, Sulton Husayn Alisherning muridi bo'lishini ko'pdan orzu qilar va uni „pirim“ deb atar edi.

Alisher esa har gal: „Yo Ollo, yo Ollo, bu qanday gap bo'ldi! Aslida — biz muridmiz, siz — hammasiga pirsiz“, der edi. Endi Sulton Husayn Alisherdan so'radi: — Pir nima-yu, murid nima?

Alisher javob berdi:

- Pirning tilagi — muridning tilagi bo'lishi kerak.
- Shunda Sulton Husayn o'zining oq otini olib kelishni buyuradi. Ot juda asov, chopag'on edi.

Sulton Husayn aytdi:

- Siz pir, men murid bo'ladigan bo'lsam, Siz shu otga minasiz, men uni yetaklayman.

Alisher noiloj otga minishga majbur bo'ladi. Ot g'oyat asov bo'lib, shohdan boshqani o'ziga yaqinlashtirmas edi. Alisher oyog'ini uzangiga qo'yishi bilan ot tipirchilay boshladi, Sulton Husayn otiga o'shqirdi, ot itoat qilib, Alisherning minishini kutdi. Alisher egariga o'tirishi bilan Sulton Husayn otining jilovidan ushlab yetaklay boshladi. Alisher hushidan ketdi. Uni egardan ko'tarib oldilar. Tarihda bunday hol ko'rilmagan edi. Hech bir zamonda shoh shoirga jilovdorlik qilmas edi. *1480–1490-yillar* Navoiy uchun badiiy ijodda samarali davr bo'ldi. Shoir „Xamsa“ dan keyin ko'p o'tmay, ketma-ket nasriy kitoblar yaratdi. U *1488-yilda* yozgan „Tarixi mulki ajam“ („Ajam shohlar tarixi“) shularning biri edi. Bu asar „Muhokamat ul-lug'atayn“da „Zubdat ut-tavoxir“ („Tarixlar qaymog'i“) deb ham ataladi. *1480-yillarning oxiri, 1490-yillarning boshida* Navoiyning yaqin do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher (1489), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularga bag'ishlab „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Pahlavon Muhammad“ asarlarini yozadi. Bu asarlar nasriy bo'lib, shoirning bu ulug' zamondoshlari haqidagi memuar xotiralaridan tashkil topgan edi. 1491-yilda muammo janriga bag'ishlangan „Risolayi muammo“ (ikkinchi nomi „Mufradot“) risolasini yozi. Navoiy zamonasida muammo janri keng tarqalgan bo'lsa — da, asosan, fors tilida yozilar edi. Navoiy o'zbek tilida muammo yozgan ilk o'zbek shoirlaridan bo'ldi. „Xazoyin ul-maoniy“ga uning 52 muamosi kiritilgan. Shoirning fors tilidagi muammolarini esa 500 chamalaydilar. Navoiyning *1490-yillardagi* eng katta xizmatlaridan biri „Xazoin ul maoniy“ („Ma'nolar xazinasi“)ni tuzish bo'ldi. *1492–1498-yillarda* tartib qilingan 4 qism devondan iborat bu ulkan she'riy kulliyot shoirning turkiy tilda yozilgan deyarli barcha lirik she'rlarini qamrab olgan edi. Shoir 7-8 yoshidan 20 yoshigacha bo'lgan davrni umrining navbahori hisobladi va shu davr devonini „G'aroyib us-sig'ar“ („Yoshlik g'aroyibotlari“) deb atadi.

Har yil 9-fevral kuni butun O'zbekistonda buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiyning tug'ilgan kuni keng miqyosda nishonlanadi. Barcha maktab va oliy o'quv yurtlarida, litseylarda va boshqa muassasalarda bu sana bayram qilinadi, Bu she'riyat bayrami, adabiyot bayramidir. Alisher Navoiy millatimizni dunyodagi eng madaniyatli va ma'rifatli xalqlar qatoriga olib chiqqan ulug' siymolardan biridir.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham buyuk bobomizga yuksak ta'rif berib: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri shoir desak shoirlarning sultonidir" – deydi. Alisher juda kichik yoshlaridan she'r va musiqaga havas qo'yadi, olim-u shoirlar davrasida ulg'ayadi. Uning otasi temuriylar xonadoniga yaqin odamlardan edi. Ularnikiga zamonasining mashhur kishilari tez-tez kelib turishardi. Yosh Alisher uch-to'rt yoshlarida she'r yod olib, ko'plarni hayratga solgan. Besh yoshida maktabga borib, bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qigan. She'rga, musiqaga mehri oshib, Fariddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Sa'diy, Xusrav Dehlaviy asarlarini sevib o'qigan. Ayniqsa Attorning "Mantiq uttayr" ("Qush nutqi") kitobi yosh Alisherning xayolini tamom egallab oldi. Bo'lajak shoir 7-8 yoshlaridan she'r mashq qila boshladi. Ikki tilda she'r yozdi, o'zbekchalariga "Navoiy", forschariga "Foniy" taxallusini qo'ydi. "Navoiy" "navo"- "kuy" so'zidan olingan, "Foniy" esa forscha "vaqtincha" ma'nolarni anglatar edi. O'smirlik davrlarida Alisher o'qishda va yozishda tinim bilmas, she'r mutolaasidan charchamas edi. "Muhokamat ul-lug'atyn" asarida o'zing yoshlik chog'ida o'zbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt (100 ming misra) she'rni yod bilganini yozadi. Shunday qilib, Navoiy 12 yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining eng mashhur shoirlarini hayratga soldi. Masalan 90 yoshli Mavloni Lutfiy uning: Orazin yopg'och, ko'zundin sochilur har lahza yosh, Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh, Satrlari bilan boshlanadigan bir she'rini tinglab, qoyil qolgan edi. She'r chindan ham go'zal edi. Undagi xayol mislsiz edi. "Yor yuzini yopgach, ko'zimdan har lahza yosh sochiladi. Bu go'yo quyosh botganida yulduzlar paydo bo'lgani kabidir", - deb yozgan edi yoshgina shoir. Umrining so'ngi o'n yili mobaynida ham Navoiy juda ko'p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar bunyod etdi. Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvar kuni Hirotda vafot etdi. O'sha kuni butun mamlakat motam tutgan edi. Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan bobokalon shoirimiz maqbarasida yangi qabr toshi o'rnatildi va tevarak atrofi daraxtzor ko'kalamzorlashtirildi, obodonlashtirildi. 1991-yil Toshkent shahridagi O'zbekiston milliy bog'ida, 2017-yili esa Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti binosi oldiga shoirning yangi haykali o'rnatildi. Bu uning Toshkent shahridagi uchinchi haykali hisoblanar edi. Keyingi yillarda Tokio, Moskva, Boku shaharlarida ulug' o'zbek shoirini haykali bunyod etildi. Shoir butun turkiy adabiyotda eng katta lirik va epik merosga ega qalamkash hisoblanadi. Navoiy - o'zbek adabiyotida eng ko'p ruboiy yozgan shoir. Uning o'zbekcha ruboiylari "Xayin ul-maoniy"ning birinchi devoni- "G'aroyib ul-sig'ar"ga kiritilgan. Ularning umumiy hajmi - 133 ta. Ulug' mutafakkir ayrim nasriy asarlarini ham she'riy parchalar bilan bezab ketavergan. Adib nasrdagi fikriga isbot-dalil sifatida, unda ilgari surilayotgan fikr yoki g'oyani yanada ta'sirchanroq qilib yetkazish uchun she'riy parchalar ham ijod qilaveradi. Shoir o'zbek tilida 500 ga yaqin ruboiy bitdi. Uning forsiy devoni- "Devoni Foniy" da esa u janrning 100 ga yaqin namunasi mavjud. Ruboiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarni aks ettirish, hayotining turli davrlarida sodir bo'lgan voqea-hodisalar ta'sirida ko'nglida kechgan oniy tuyg'ulari-yu chiqargan muhim xulosalarini ifodalashda shoirga juda qo'l kelgan.

G'urbatta g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas gar ichra qizil gul butsa,

Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.

Bu ruboiy barchamizga tanish va uni barchamiz maktabgacha ta'lim muaassasi dargohiga brogan kezlarimizdan boshlab yod olganmiz. Bu ruboiy "Xazoyin ul maoniy" ning "G'aroyib ussig'ar" devonidagi ruboiylar tarkibiga kiritilgan. Navoiyshunoslikda, uni shoir taqdir taqozosiga ko'ra hozirgi Eronning Mashhad shahrida- musofirlikda yashagan davrida yozgan, deb hisoblanadi. Ruboiyda musofirlik- begona yurtdagi Vatan hijroni-yu sog'inch ohangi ustuvor. Chunki "g'urbat" so'zi- musofirlik, begona yurtda yashash, degan ma'noni anglatadi. "G'arib" esa – anashu begona joyda yashayotgankishi. Odam o'zga diyorda shodmon, ya'ni xush-u xursand hayot kechirishi qiyin. 1-misra ana shun bir insoniy holatni ifodalab kelgan. 2-

satrda bu fikr dalil bilan isbotlandi: shodmon bo'lmaslikka sabab shuki, begona yurtning eli musofir- notanish odamga shafqat qilmas va aslo mehribonlik ko'rsatmas ekan... "O'zga yurtda shoh bo'lguncha o'z yurtning gado bo'l" degan maqol ham ma'nosiga ko'ra, ana shu ruboiy mazmuni bilan hamohanglik qiladi. Ruboiyning 3- va 4- misralarida dastlabki ikki satrda aytikgan yalpi fikrning qiyosiy isboti berilgan. Bulbul- dala-yu dasht, bog'-u bo'stonda erkin uchib yuradigan qush. Qafas uning asl makoni emas. Bu tutqunlikda u xuddi o'zga yurtda yashayotgan kishidek musofir. Garchi qafas oltindan yasalgan, ichida qizil gul bitgan bo'lsa ham, bu tabiatan gul oshig'i bo'lmish bulbulga hech ham tatimaydi. Chunki oltin qafas qizil guldan ko'ra unga, tikanli bo'lsa ham o'z oshyoni- ma'qul. Qanday talqin qilinmasin, ruboiyda Vatandan ayriliq dardi qalamga olingan.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo'la turib, u mamalakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo'shgan; ilm, fan, san'at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan. Ko'rib turganimizdek, Navoiy merosi mavzu va janrlari bo'yicha turlicha. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o'zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari taqlid va ilhom manbai bo'lib kelmoqda. Alisher Navoiy mumtoz adabiyotimizning markaziy siymosi. Turkiy adabiyotning eng ilg'or va bezavol yutuqlari shoir she'riyatida mujassamlashgan. Buni Ozarboyjonning benazir shoiri Muhammad Fuzuliy, turkman klassigi Mahdum quli, qozoq oqini Abay, qoraqalpoq yozma adabiyotining asoschilaridan bo'lmish Berdaqning e'tiroflaridan ham anglash mumkin. Demak, Navoiy ijodi qardosh xalqlar bilan bo'lgan asriy aloqalar, do'stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash va yangi pog'onalariga ko'tarishdagi o'ziga xos muhtasham asosdir. Navoiy va Jomiy o'rtasidagi ustozu shogirdlikni esa har qancha ibrat qilib ko'rsatsa, o'shancha kam. Chunki bunday hodisalar ko'hna tarix uchun ham kamyobdir. Hozirgi vaqtdagi eng muhim muammolardan biri Navoiy asarlari tili va uslubining hozirgi kitobxonlar tushunishi uchun qiyin va murakkabligidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki Alisher Navoiy bobomizdek buyuk zot yo'qligini, donolarning donosi, chuqur ilimli bilimli insondir. Chindan ham zamondoshlarimiz orasida Navoiy asarlarini o'qish va o'rganishga qiziqish, intilish kuchli. "Biroq shoir asarlari tilidagi qator murakkabliklar bu maqsadlarni amalga oshirishni og'irlashtirmoqda. Biz Navoiy asarlarini keng o'quvchilar ommasiga tushunarli qilishning yangi usullarini aniqlashimiz va bu sohada yangi rejalar tuzishimiz zarur. Biz shoir asarlarini ko'p miqdorda nashr etsag-u, lekin kitobxonlar ularni o'qib yaxshi tushunmasa, bu bugungi navoiyshunoslik fanimizga sharaf keltirmaydi". Shunday ekan hozirgi o'sib kelayotgan yosh avlod ushbu madaniy, ma'rifiy boyliklarni asrab avaylamoqlari lozim. Ushbu asarlar bizga yetib kelguncha qanchadan-qancha mashaqqatlarni yengib hozirgi ya'ni o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga yetib kelgan. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda buyuk bobokalonlarimizning bizga yozib qoldirgan asarlari, to'plamlari va madaniy boy meroslarining o'rni beqiyos. Yoshlar ongiga ushbu fikrlarni singdirish orqali kelajak avlodni adabiyot, she'riyatga qiziqish ruhida tarbiyalamoq joiz deb bilaman. Xulosa qilib aytsak, Navoiyning umrboqiy merosi el va elatlarni ezgulik, poklik, haqiqat atrofida jiplashtirishga qodir bo'lgan bebaho boyligimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Maqolalar to'plami. - Moskva-Leningrad: AN, 1946 yil.
2. Husayn Boyqara. Risola. Xodimlarimiz: A.Rustam, K.Hasan. -Toshkent: Sharq, 1991 yil.
3. Davlatshoh Samarqandiy. Bustardlar. Majbur tilidan B.Ahmedov tarjimasi. - Toshkent: Adabiyot va sanat, 1981 yil.
4. O'zbek madaniyati. Besh tomlik. 2 jildli. - Toshkent: Fan, 1977.
5. Mahmud Hasaniy. Ta'rihlarda Navoiy vasfi. -Toshkent: G.G'ulom NMB, 1991 y.
1. S.Ahmedov, B. Qosimov. Adabiyot. Toshkent: Sharq, 2015. 174 b.

2. Y.Qozoqboyev, B. Qosimov. Adabiyot. Toshkent: Sharq, 2017. 365 b.
 3. S.Olim, S.Ahmedov. Adabiyot. Toshkent: G'afur G'ulom, 2019. 351 b.
 4. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent: 2001. 2-son.
 5. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. Asian Journal of Basic Science & Research, 5(1), 103-108.
 6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
 7. Turdiyev, B. S. (2022). INTERPRETATION OF UNIVERSAL VALUES IN ZOROASTRIANISM. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 1(7), 109-114. Sobirovich, T. B. Interethnic Harmony And Religious Tolerance An Integral Part of The Ancient Traditions Of The Uzbeks.
 8. Sobirovich T. B. National and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 334-338.
 9. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 9. – C. 197-202.
- Internet saytlar.**
10. Arboblari.uz
 11. Ziyouz.com.kutubxonasi.



INNOVATIVE
ACADEMY